

# YASHIL

## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№10**

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>®</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2025**



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 40 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyeich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori

## Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                          |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....                         | 18 |
| Quliyev Begimqul Melikovich                                                                              |    |
| SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI..... | 24 |
| Sabirova Oysuluv Shonazarovna                                                                            |    |
| KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI .....                            | 30 |
| Musayeva Shoirazimovna                                                                                   |    |
| IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....           | 35 |
| Alabayev Sobitxon                                                                                        |    |



# SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Sabirova Oysuluv Shonazarovna**

UrDU iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0002-6348-1086

Email: oysulvsabirova.urdu@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada savdo korxonalari samaradorligini oshirishda statistik tahlil va unda qo'llaniladigan usullar yoritilgan. Tadqiqot davomida ko'rsatkichlar tizimi, korrelatsiya va regressiya tahlili metodlari qo'llanib, ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar, samaradorlik va xodimlar soni o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Shuningdek, maqolada savdo korxonalarida samaradorlikni oshirish uchun investitsiyalarni ko'paytirish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, raqamli savdo platformalarini rivojlantirish hamda eksport salohiyatini kuchaytirish bo'yicha takliflar berilgan.

**Kali so'zlar:** savdo korxonalari, raqobatbardoshlik, statistik tahlil, korrelatsiya tahlili, regressiya modeli, investitsiyalar, ko'rsatkichlar tizimi, indeks usuli, eksport salohiyati.

**Abstract:** This article highlights the use of statistical analysis and its methods in improving the efficiency of trade enterprises. During the research, the system of indicators as well as correlation and regression analysis methods were applied to study the interrelationship between production volume, investments, efficiency, and the number of employees. Furthermore, the article provides recommendations on increasing investments, supporting small businesses, developing digital trade platforms, and enhancing export potential in order to improve the efficiency of trade enterprises.

**Key words:** trade enterprises, competitiveness, statistical analysis, correlation analysis, regression model, investments, system of indicators, index method, export potential.

**Аннотация:** В представленном исследовании рассматриваются методология статистического анализа, направленного на повышение эффективности деятельности торговых предприятий. В рамках проведенного исследования была задействована система показателей, а также методы корреляционного и регрессионного анализа, позволившие выявить взаимосвязи между объемом производства, инвестициями, производительностью и численностью персонала. По результатам работы сформулирован комплекс рекомендаций, включающий увеличение объема инвестиций, поддержку малого предпринимательства, развитие цифровых торговых платформ и наращивание экспортного потенциала.

**Ключевые слова:** торговые предприятия, конкурентоспособность, статистический анализ, корреляционный анализ, регрессионная модель, инвестиции, система показателей, индексный метод, экспортный потенциал.

## KIRISH

So'nggi yillarda dunyo miqyosida statistik tahlil vositalariga bo'lgan talab keskin ortmoqda. 2023-yilda ushbu bozor hajmi 100 milliard AQSh dollaridan oshgan bo'lsa, prognozlarga ko'ra 2027-yilga kelib 150 milliard dollarga yetishi kutilmoqda (Gartner, 2023). Mazkur dinamik o'sishda savdo sohasi 35 foizlik ulush bilan yetakchi segmentlardan biri hisoblanadi. Bu holat savdo korxonalari tomonidan ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlariga strategik ustuvorlik berilayotganidan dalolat beradi.

Savdo korxonalarining samaradorligi iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.



Samaradorlik ko'rsatkichini aniqlashda turli statistik tahlil usullari — ko'rsatkichlar tizimi, regressiya, korrelatsiya va indekslar alohida o'rin tutadi. Bu usullar nafaqat korxona ichki jarayonlarini baholash, balki hududiy savdo tarmoqlarining iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan ulushini aniqlashda ham qo'llaniladi [1].

O'zbekiston Respublikasida savdo va xizmat ko'rsatish sohasining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 2023-yilda 20 foizdan ortiqni tashkil qilgan. Xorazm viloyatida esa bu ko'rsatkich 23,5 foizga teng bo'lib, viloyat iqtisodiyotida savdo sektorining salmoqli o'rnini borligini ko'rsatadi [2].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Savdo korxonalari samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar so'nggi yillarda alohida e'tibor qozonmoqda, chunki globallashtirish va raqamlashtirish jarayonida savdo korxonalari o'z pozitsiyalarini mustahkamlash va yangi bozorlarni egallash uchun samarali strategiyalar ishlab chiqishi talab qilinmoqda. Ushbu mavzuga oid adabiyotlar tahlili savdo korxonalarining iqtisodiy salohiyati, resurslarni boshqarish, innovatsiyalar va statistik tahlil metodologiyalarini o'z ichiga olgan dolzarb ilmiy ishlarga asoslanadi. Jahon amaliyotida savdo korxonalarida statistik tahlil usullaridan foydalanish darajasini o'rgansak, aynan AQShning yetakchi chakana savdo tarmoqlari qaror qabul qilish jarayonlarida statistik tahlilni keng joriy etgan. Xususan, Fortune 500 ro'yxatidagi savdo kompaniyalarining 92 foizi data-driven decision-making tizimlariga ega.

Masalan, Walmart o'z ma'lumotlar markazida har kuni 2,5 petabayt hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash orqali har soniyada 1 milliondan ortiq savdo operatsiyalarini tahlil qiladi. Amazon esa tavsiyalar tizimida mashinali o'rganish algoritmlaridan foydalangan holda savdo hajmini 35 foizga oshirishga erishgan. Kompaniya ishlab chiqqan bashoratlash modellarining aniqlik darajasi 95 foizni tashkil etadi (Amazon AI Research, 2023). Ushbu misollar AQSh chakana savdo korxonalari uchun statistik tahlil biznes samaradorligini oshirishning asosiy vositasiga aylanganini tasdiqlaydi.

Richard Fildes (Lancaster University) va uning hamkorlari chakana savdoda prognozlash masalalarini keng ko'lamda o'rgangan. Ularning izlanishlari oddiy regressiya va vaqt qatorlari modellarini qo'llash bilan cheklanmay, balki meta-learning yondashuvlari va murakkab prognozlash modellarini solishtirishni ham o'z ichiga oladi. Tadqiqotlar savdo prognozlari aniqligini oshirish uchun regressiya usullarini qanday sharoitda samarali qo'llash mumkinligi bo'yicha amaliy ko'rsatmalarni taklif etadi [6].

Henk R. A. Koster (Netherlands) va hamkorlari shahar savdo maydonlari hamda "shopping externalities"ni tahlil qilishda regressiya zanjiri va panel ma'lumotlar asosidagi ekonometriya usullaridan foydalangan. Ularning tadqiqotlari ko'p o'zgaruvchilik va korrelyatsion bog'lanishlarni hisobga olgan holda regressiya modellarining qo'llanish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi [7].

O'zbekistonda esa Bakhtiyor Safarov (Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti) o'zining "Development of Retail Trade in Uzbekistan" (2022) nomli maqolasida O'zbekiston chakana savdo bozorining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilgan [8]. U global Retail Trade Development Index kabi indekslardan foydalanib, statistik korrelyatsiya va regressiya usullari yordamida asosiy dinamik yo'nalishlarni ochib bergan.

I. Komilovning "Impact of store atmosphere on impulse buying behavior of Uzbek consumers" nomli maqolasida do'kon muhitining impulsiv xarid qilishga ta'siri survey ma'lumotlari asosida korrelyatsion va regressiya tahlillari yordamida o'rganilgan. Tadqiqot natijalarida o'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsiya aniqlanib, impulsiv sotib olishga regressiya orqali bevosita ta'sir baholangan [9].

Z. Kuldashaeva onlayn xarid qilish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarida omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun korrelyatsion tahlil va regressiya usullaridan (logistic regression / OLS) foydalanilgan. Ushbu ishlar O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonida iste'molchilar xulq-atvorini iqtisodiy-statistik metodlar yordamida tahlil qilishga qaratilgan muhim ilmiy natija desak mubolag'a bo'lmaydi [10].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Deskriptiv statistika savdo korxonalari faoliyatiga oid asosiy ko'rsatkichlarni, jumladan ishlab chiqarish hajmi, rentabellik darajasi va eksport ulushini aniqlash imkonini beradi. Ushbu usul korxonalar faoliyatining umumiy iqtisodiy holatini tahlil qilish va ularning salohiyatini baholashda muhim vosita hisoblanadi. Shu yo'sinda olingan natijalar savdo korxonalarining raqobatbardoshlik darajasi to'g'risida ishonchli va tizimli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Regressiya tahlili esa korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligi, eksport ko'rsatkichlari hamda moliyaviy natijalarini prognozlashda qo'llanadi. Bu yondashuv kelgusida korxonalar rivojlanishining ehtimoliy yo'nalishlarini belgilashga hamda mavjud resurslardan samarali foydalanish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, savdo korxonalarining 78 foizi statistik tahlil jarayonida R va Python dasturlash tillaridan foydalanmoqda. Shuningdek, professional analitik paketlar — SPSS va SAS dasturlari — 65 foiz korxonalar tomonidan qo'llanilmoqda (Deloitte Analytics Survey, 2023). Mashinali o'rganishga asoslangan usullardan foydalanish darajasi esa quyidagicha: regressiya tahlili — 89 foiz, klaster tahlili — 76 foiz, vaqt qatorlari tahlili — 82 foiz, faktor tahlili — 68 foiz, neyron tarmoqlar — 55 foiz. Mazkur ko'rsatkichlar savdo korxonalarida statistik tahlilning nafaqat klassik usullari, balki zamonaviy algoritmlar orqali ham samarali qo'llanilayotganini anglatadi.

Jahon tajribasida savdo korxonalari statistik tahlilni keng joriy etish orqali quyidagi iqtisodiy natijalarga erishgan: savdo hajmi 15–25 foizga oshgan, inventar aylanish tezligi 30–40 foizga tezlashgan, mijozlar sodiqligi 35–45 foizga ortgan, marketing investitsiyalari samaradorligi (ROI) 40–60 foizga yaxshilangan, umumiy xarajatlar 20–30 foizga kamaygan.

Bugungi kunda savdo korxonalarining 75 foizi bulutli analitik platformalardan foydalanmoqda, 60 foizi esa real vaqt rejimidagi tahlil tizimlariga o'tgan. 45 foiz kompaniyalar sun'iy intellekt asosidagi statistik tahlil texnologiyalarini faol joriy etmoqda (McKinsey Digital Survey, 2023). Umuman olganda, xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, savdo korxonalarida statistik tahlil vositalarining keng ko'lamda qo'llanishi raqobatbardoshlikni ta'minlash, xarajatlarni optimallashtirish va barqaror rivojlanishni kafolatlashda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.

Xorazm viloyatidagi savdo korxonalari faoliyatini Xorazm viloyati Statistika bo'limi ma'lumotlari asosida tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi natijalarni ko'rish mumkin. Ko'rsatkichlar tizimi asosida 2023-yilda savdo korxonalari soni 8197 tani tashkil etgan, ulardan 99,7 foizi kichik biznes subyektlari hisoblanadi [2]. Bu ko'rsatkich hududda savdo faoliyatining asosan kichik korxonalar orqali amalga oshirilayotganini anglatadi (1-jadval).


1-jadval. Xorazm viloyati savdo korxonalari samaradorligini baholashda statistik tahlil usullari natijalari (2022–2023-yillar)

| Tahlil turi           | Natija                                                                                               | Izoh                                                            |
|-----------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------|
| Ko'rsatkichlar tizimi | 2023 yilda Xorazm viloyatida savdo korxonalari soni 8197 ta, ulardan 99,7% kichik biznes subyektlari | Savdo faoliyati asosan kichik biznes orqali amalga oshirilmoqda |
| Indeks usuli          | 2022–2023 yillarda savdo aylanmasi indeksi 114,2%                                                    | Savdo hajmlarining barqaror o'sishi                             |
| Korrelyatsiya tahlili | Sof foyda va xodimlar soni o'rtasida ijobiy bog'liqlik, $r = 0,62$                                   | Xodimlar soni ortishi bilan samaradorlik oshmoqda               |
| Regressiya tahlili    | Investitsiyaning 1% ga o'sishi savdo hajmining 0,8% ga ortishiga olib keladi ( $p < 0.05$ )          | Savdo aylanmasining o'sishi investitsiya oqimiga bog'liq        |

Indeks usuli natijalari: 2022–2023-yillar davomida viloyat savdo aylanmasi indeksi 114,2 foizni tashkil etdi, bu esa savdo hajmlarining barqaror o'sishini ko'rsatadi [2].

Korrelyatsiya tahlili: savdo bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarining sof foydasi bilan xodimlar soni o'rtasida o'rta darajadagi ijobiy bog'liqlik ( $r = 0,62$ ) mavjudligi aniqlandi. Aniqroq aytganda, xodimlar soni oshgani sari korxonalar samaradorligi ham ortmoqda.

Regressiya tahlili: savdo aylanmasining o'sishi ko'proq investitsiya oqimiga bog'liq. Regressiya modeli natijalari shuni ko'rsatdiki, investitsiyalarning 1 foizga o'sishi savdo hajmining 0,8 foizga ortishiga olib keladi ( $p < 0.05$ ) (1-rasm) [3,4].



1-rasm. Kichik korxona va mikrofirmalarning turli sohalar bo'yicha soni

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimoti ularning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rnini yaqqol aks ettirmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu korxonalar sonining eng katta qismi savdo sohasiga to'g'ri keladi — 157,3 ming birlik. Bu esa kichik biznes subyektlari ichida savdo faoliyatining yetakchi o'rinni egallayotganini bildiradi. Mazkur holat, bir tomondan, ichki bozor talabining yuqoriligi, ikkinchi tomondan, ushbu sohada boshlang'ich xarajatlarning pastligi va tezkor daromad olish imkoniyatlari bilan izohlanadi [11].


Yashash va ovqatlanish xizmatlari yo'nalishida 28,1 mingta korxona faoliyat yuritmoqda. Ushbu natija mehmonxona va restoran xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasi kichik biznesning diversifikatsiyalangan segmenti sifatida iqtisodiy o'sish omillaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda [12].

Sanoat sektori 68,5 mingta kichik korxona bilan ikkinchi o'rinda turadi. So'nggi yillarda ushbu sohada raqamli texnologiyalarni joriy etish, yangi ishlab chiqarish uskunalari va innovatsion yondashuvlardan foydalanish kichik biznesning sanoat tarmoqlaridagi raqobatbardoshligini oshirmoqda [13].

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi yo'nalishida 37,1 mingta korxona mavjud bo'lib, ular asosan oziq-ovqat yetishtirish va qayta ishlash jarayonlarida faoliyat yuritmoqda. Ushbu ko'rsatkich qishloq hududlarida iqtisodiy faollikning kuchayib borayotganini, shuningdek, tabiiy resurslardan samarali foydalanilayotganini bildiradi [14].

Umuman olganda, statistik tahlillar kichik biznesning iqtisodiyotning barcha asosiy tarmoqlarida sezilarli ulushga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Bu esa nafaqat ichki bozorni barqaror ta'minlash, balki iqtisodiy diversifikatsiya va hududiy rivojlanish jarayonlarida ham muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, savdo korxonalari samaradorligini yaxshilash uchun statistik tahlil usullarini izchil qo'llash zarur. Moliyaviy va iqtisodiy barqarorlikni baholash maxsus ko'rsatkichlar tizimi orqali, dinamikani kuzatish esa indekslar vositasida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, korrelyatsion va regressiya tahlillari samaradorlikni belgilovchi asosiy omillarni aniqlashga va ular asosida dalillarga asoslangan siyosat hamda qarorlar ishlab chiqishga imkon beradi. O'zbekistonning 2021–2023-yillardagi ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlari (2-rasm) [5].



2-rasm. O'zbekistonning 2021-2023-yillardagi ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlari

O'zbekistonning 2021–2023-yillardagi ishlab chiqarish hajmi va eksport ko'rsatkichlari dinamikasi mamlakat iqtisodiyotida barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. 2021-yilda ishlab chiqarish hajmi 200,1 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 251,4 trln so'mga yetib, 25,6 foizga oshgan. 2023-yilda esa ishlab chiqarish hajmi 293,6 trln so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan qariyb 47 foizga o'sish qayd etildi.

Eksport hajmida ham ijobiy o'sish kuzatilgan. Xususan, 2021-yilda 9,7 mlrd AQSh dollari miqdoridagi eksport hajmi 2022-yilda 11,3 mlrd dollarga yetgan, 2023-yilda esa 12,3 mlrd dollarga ko'tarilgan. Demak, uch yil davomida eksport hajmi 2,6 mlrd dollarga yoki 26,8 foizga ortgan. Mazkur tendensiyalar ishlab chiqarishning ortishi bilan birga tashqi bozorga yo'naltirilgan mahsulot ulushi ham kengayib borayotganidan dalolat beradi. Bu esa sanoat va savdo korxonalarining raqobatbardoshlik darajasi oshayotganini, resurslardan samarali foydalanish va eksportni diversifikatsiya qilish borasida aniq natijalarga erishilayotganini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Dunyo tajribasida, xususan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlarda savdo samaradorligini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalarni joriy etish, logistika zanjirlarini optimallashtirish va elektron savdoni kengaytirish asosiy yo'nalishlardan hisoblanadi [4]. Xorazm viloyatida ham ushbu amaliyotlarni qo'llash orqali samaradorlikni yanada oshirish mumkin. Savdo bilan shug'ullanuvchi subyektlar samaradorligini oshirishda statistik tahlil usullari muhim ahamiyat kasb etib, ular subyektlarning moliyaviy barqarorligini baholash, resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash va hududiy iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Xorazm viloyati misolida olingan natijalar samaradorlikni oshirish uchun investitsiyalarni ko'paytirish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va raqamli savdo platformalarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gujarati, D. N., Porter, D. C. Asosiy ekonometriya: 5-nashr / D. N. Gujarati, D. C. Porter; tarjimon va muharrir. – Nyu-York: McGraw-Hill, 2009. – 944 b.
2. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. Savdo korxonalari statistikasi [Elektron resurs]. – 2023. – URL: <https://xorazmstat.uz> (murojaat sanasi: 03.07.2024).
3. Wooldridge, J. M. Zamonaviy yondashuv bilan ekonometriyaga kirish: 6-nashr / J. M. Wooldridge. – Boston: Cengage Learning, 2016. – 789 b.
4. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD). Chakana savdo sohasida unumdorlik / OECD nashriyoti. – Parij: OECD, 2020. – 154 b.
5. Jabborov, I. J. Statistik tahlil orqali raqobatbardoshlikni oshirish / I. J. Jabborov // Marketing, biznes va menejment jurnali (JMBM). – 2024. – № 2. – B. 45-52. – SJIF indeksi: 5.57.
6. Fildes R., Ma S., Kolassa S. Retail forecasting: Research and practice // International Journal of Forecasting. – 2019. – Vol. 35, №1. – P. 1–8.



7. Koster H. R. A., van Ommeren J., Rietveld P. Agglomeration economies and retail externalities // Journal of Regional Science. – 2019. – Vol. 59, №2. – P. 215–240.
8. Safarov B. Development of retail trade in Uzbekistan // Tashkent State University of Economics Research Papers. – 2022. – Vol. 4, №2. – P. 55–63.
9. Komilova I. Impact of store atmosphere on impulse buying behavior of Uzbek consumers // Economics and Innovative Technologies. – 2019. – Vol. 5, №3. – P. 44–52.
10. Kuldasheva Z., Akhmedova M., Karimov D. Consumer behavior in the era of digital transformation: Evidence from Uzbekistan // Central Asian Economic Review. – 2021. – Vol. 23, №1. – P. 88–101.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PQ-60-son qaror. – Toshkent, 2022.
12. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik to'g'risida statistik ma'lumotlar. – Toshkent: 2024.
13. Islomov U., Qodirova N. Kichik biznesni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2023. – 185 b.
14. Karimov A. Qishloq xo'jaligida kichik korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 210 b.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 10

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>